



**XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI
KENGASHINING QARORI**

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «22» июль

VI-48-108-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

**Tumanda kapital qurilish, kommunikatsiyalar va
kommunal xo'jalik masalalari sohasida belgilangan eng muhim
samaradorlik ko'rsatgichlarining ijrosi haqida**

Tumanda kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik masalalari sohasida belgilangan eng muhim samaradorlik ko'rsatgichlari yuzasidan amalga oshirilgani ishlar yuzasidan tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo'jalik masalalari bo'yicha o'rinnbosari A.Chulibayevning tumanda Obodonlashtirish boshqarmasiga balansida jami 50 ta qabristonlar mavjud bo'lib umumiylar maydoni 189 getktarni tashkil etadi. Obodonlashtirish boshqarmasi balansida qabristonlarda doimiy ravishda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilib jumladan ko'chat ekish 101364 dona, daraxt oqlash 9807 dona, yer yumshatish 6200 kv m², begona o'tdan tozalash 80000 kv m², maydonlarni sug'orish 6200 kv m², yo'lak supurish 52450 kv m², daraxtlarga shakl berish 5000 dona, ko'chat sug'orish 101364 dona, ariq tozalash 32000 p/m, chiqindi chiqarish 1200 m³, qurilish ishlari 3000 kv m² qurilganligi, shuningdek tumanda 2022 yil yanvar-iyun oylari maboynidagi jami 3,8 km piyoda va 3,8 km salomatlik yo'laklari qurilgan, shundan "Ko'klam" mahallasida 0,7 km, Mustaqillik ko'chasi, "Do'stlik" mahallasida 0,7 km, "Bobotog" mahallasida 1,2 km va "Bobur" mahallasida 1,2 km piyoda yo'laklari va salomatlik yo'laklari barpo etildi, bundan tashqari bugungi kunda tumanning tumanning "Ko'klam", "Do'stlik", "Bobotog" va "Bobur" mahallalari hududidan

piyoda va salomatlik yo‘laklarini qurish maqsadida 3,8 km qurish ishlari nihoyasiga yetkazilayotganligi, bundan tashqari “Ko‘klam”, “Do‘stlik”, “Bobotog” va “Bobur” mahallalari hududida 122 ta tungi yoritish chiroqlari o‘rnatilganligi bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga taqdim etgan hisoboti muhokamasida bildirilgan taklif-mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Tumanda kapital qurilish, kommunikatsiyalar va communal xo‘jalikmasalalari sohasida belgilangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatgichlarining ijrosi to‘g‘risida tuman hokimining o‘rinbosari A.Chulibayevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Chulibayevning taqdim etgan hisoboti asosida tumanda 50 ta qabristonlarni qurilish va ta’mirlash ishlari bo‘yicha joriy yil davomida 50 ta qabristonlarni qurilish va ta’mirlash ishlari yaxshilandi.
3. 2022-yil yanvar-iyun oylari mobaynida jami 3,8 km piyoda va salomatlik yo‘laklari qurilganligi tasdiqlansin.
4. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Chulibayevning tumanda kapital qurilish,kommunikatsiyalar va communal xo‘jalik masalalari sohasida belgilangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatgichlari asosida tashkil etgan ishlari yaxshi deb baholansin.
5. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Chulibayev)ga tegishli mas’ul idoralar bilan birgalikda 2022-yilda tumanda qishloq va mahallalarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari va investitsiya dasturlarida belgilangan rejalarining to‘liq ijrosi ta’minlanishini hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har oyda tuman Kengashiga axborot kiritinsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (N.Shoyeva), “Jarayon” gazetasi (B.Elmurodova) ga tumanda kapital qurilish, kommunikatsiyalar va communal xo‘jalik masalalari sohasida belgilangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatgichlarining ijrosi, Dasturlarda belgilangan tadbirlarning bajarilishi yuzasidan olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, communal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Yuldashev), tuman hokiminining o‘rnbosari A.Chulibayevlar zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi
raisi



Xudoyberganov B.X